XALQ DEPUTATLARI SO’X TUMAN KENGASHI

Q A R O R I

2024 - yil 30 - yanvar VI-82-3-11-159-K/24 So‘x tumani hokimligi

So‘x tumani bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6121-Farmonining 4-bandiga muvofiq tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda tuman davlat soliq inspeksiyasining “qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar” loyihasi bo‘yicha kiritgan takliflarini muhokama etib, Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligining 2023-yil 25-dekabrdagi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar qo‘llash bo‘yicha 01/30-2-10353-sonli xatiga ko‘ra, quyidagilar:

yer solig‘ining amaldagi soliq stavkalari 2024-yilda 0,85 baravarga indeksatsiya qilinishi kutilayotganligi;

So‘x tumani uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yuridik shaxslarga 1 ga uchun 31,45 mln.so‘m va jismoniy shaxslarga 1 kv.m uchun 266,0 so‘m bazaviy soliq stavkasi belgilanishi ko‘zda tutilganligi;

kelgusi yil bazaviy soliq stavkasiga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar qo‘llashda keyingi yil mahalliy byudjet daromadlari prognozidan kelib chiqish bo‘yicha tavsiyalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar miqdorlarini belgilash bo‘yicha tuman moliya bo‘limining hamda tuman Davlat soliq inspeksiyasining qo‘shma taklifi maqullansin.

3. Mazkur qaror bilan:

So‘x tumani hududida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar miqdorlari 1-ilovaga muvofiq,

So‘x tumani hududida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda:

Soliq idoralariga jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yakka tartibdagi tadbirkorlardan tashqari) summasi 2023-yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi lozimligi;

tuman xalq deputatlari Kengashi tomonidan belgilangan yer solig‘i stavkalariga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun, mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni kiritish huquqi berilganligi alohida ko‘rsatib o‘tilsin.

4. So‘x tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (**I.Tojiboev**), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (**Z.Iskandarov**), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (**F.Turaboev**) 3 kun muddatda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan koeffitsientlarni MFYlar yetkazilishini ta’minlasin.

5. Tuman xalq deputatlari Kengashi 1 hafta muddatda ushbu qarorning 1 va 2-ilovalariga asosan belgilangan soliq stavkalariga mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llash bo‘yicha muhokamalar o‘tkazib, yil yakuni bo‘yicha tasdiqlangan soliq stavkalarini tuman Davlat soliq inspeksiyasiga taqdim etsinlar.

6. So‘x tumani Davlat soliq inspeksiyasi (**F.Turaboev**) yer solig‘i bo‘yicha tasdiqlangan soliq stavkalarini barcha soliq to‘lovchilarga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yetkazilishini ta’minlasin.

7. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (**F.Turaboev**) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda o‘z vaqtida budjetga undirilishini nazoratga olib borish;

tegishli budjetning ijro etilishi jarayonida unga tushumlarni ko‘paytirish bo‘yicha qo‘shimcha zaxiralarni aniqlash;

yer solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali tashkil etib borsinlar.

8. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

9.Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining **«Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha»** doimiy komissiyasi (**N.Sadirbekov**) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (**I.Tojiboev**) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **S.Sayidmusaev**

Xalq deputatlari So‘x tuman
Kengashining
2024-yil 30-yanvardagi
VI-82-3-11-159-K/24-son qaroriga
1-ilova

1-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

ming so‘mda

T/r	Shahar va tuman nomi	MFY lar nomi	Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2024 yiluchun (1 ga uchun)
1	So‘x t	Rovon MFY	1,26	335,0
2	So‘x t	Istiklol MFY	1,21	322,0
3	So‘x t	Navobod MFY	1,04	277,0
4	So‘x t	Yangiariq MFY	1,21	322,0
5	So‘x t	Oftobru MFY	1,04	277,0
6	So‘x t	Sarikanda MFY	1,21	322,0
7	So‘x t	Saribozorcha MFY	1,21	322,0
8	So‘x t	Qal’a MFY	1,21	322,0
9	So‘x t	Hazrati ali MFY	1,21	322,0
10	So‘x t	Lenburg MFY	1,21	322,0
11	So‘x t	Tul MFY	1,16	309,0
12	So‘x t	Kalacha MFY	1,16	309,0
13	So‘x t	Devayron MFY	1,16	309,0
14	So‘x t	Sohibkor MFY	1,16	309,0
15	So‘x t	Gaznov MFY	1,16	309,0
16	So‘x t	Chashma MFY	1,04	277,0
17	So‘x t	Zangat MFY	1,04	277,0
18	So‘x t	Demursad MFY	0,94	250,0
19	So‘x t	Guliston MFY	0,94	250,0

20	So‘x t	Chumoqcha MFY	1,16	309,0
21	So‘x t	So‘x (Obishir) MFY	1,16	309,0
22	So‘x t	Mulgon MFY	1,16	309,0
23	So‘x t	Hushyor MFY	0,74	197,0
24	So‘x t	Sharqobod MFY	0,74	197,0
25	So‘x t	Qizilqiyoq MFY	0,74	197,0
26	So‘x t	Sebzor MFY	0,74	197,0
27	So‘x t	Qaqir MFY	0,74	197,0

Xalq deputatlari So‘x tuman
Kengashining
2024-yil 30-yanvardagi
VI-82-3-11-159-K/24-son qaroriga
2-ilova

2-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

so‘mda

T/r	**Shahar va tuman nomi**	**MFY lar nomi**	**Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)**	**Yer solig‘i stavkasi 2024 yiluchun (1 kvuchun)**
1	So‘x t	Rovon MFY	1,20	37 719
2	So‘x t	Istiklol MFY	1,15	36 148
3	So‘x t	Navobod MFY	1,00	31 433
4	So‘x t	Yangiariq MFY	1,15	36 148
5	So‘x t	Oftobru MFY	1,00	31 433
6	So‘x t	Sarikanda MFY	1,15	36 148
7	So‘x t	Saribozorcha MFY	1,15	36 148
8	So‘x t	Qal’a MFY	1,15	36 148
9	So‘x t	Hazrati ali MFY	1,15	36 148
10	So‘x t	Lenburg MFY	1,15	36 148
11	So‘x t	Tul MFY	1,10	34 576
12	So‘x t	Qalacha MFY	1,10	34 576
13	So‘x t	Devayron MFY	1,10	34 576
14	So‘x t	Sohibkor MFY	1,10	34 576
15	So‘x t	Gaznov MFY	1,10	34 576
16	So‘x t	Chashma MFY	1,00	31 433

17	So‘x t	Zangat MFY	1,00	31 433
18	So‘x t	Demursad MFY	0,90	28 289
19	So‘x t	Guliston MFY	0,90	28 289
20	So‘x t	Chumokcha MFY	1,10	34 576
21	So‘x t	So‘x (Obishir) MFY	1,10	34 576
22	So‘x t	Mulgon MFY	1,10	34 576
23	So‘x t	Hushyor MFY	0,70	22 003
24	So‘x t	Sharqobod MFY	0,70	22 003
25	So‘x t	Qizilqiyoq MFY	0,70	22 003
26	So‘x t	Sebzor MFY	0,70	22 003
27	So‘x t	Qaqir MFY	0,70	22 003